“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=382

2026-yil
8-son
avgust
ISSN 3093-8546

Jinoyat protsessida davlat sud-ekspertiza muassasasining huquqiy maqomi va ekspert xulosasi mustaqilligini ta’minlash muammolari

Oybek Mansurov,
X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi huzuridagi
Sud ekspertlik ilmiy-tadqiqot instituti
tayanch doktoranti
e-mail: oybekoybek2237@gmail.com

Аннотация. Maqolada davlat sud-ekspertiza muassasalarining jinoyat protsessidagi huquqiy maqomi, ekspert faoliyatining protsessual mustaqilligi hamda ekspert xulosasining daliliy ahamiyati tahlil qilingan. Sud ekspertlarining huquq va majburiyatlari, ekspert xulosasini tayyorlash va rasmiylashtirish jarayonida muassasa rahbariyatining o‘rni, shuningdek, ko‘p bosqichli ichki nazorat amaliyotining ekspert mustaqilligiga ta’siri yoritilgan. Amaliyotda xulosalarni tekshirish jarayonining mazmuniy aralashuvga aylanishi ekspertning shaxsiy javobgarligi va xulosaning xolisligiga, shuningdek, protsessual harakatlarni amalga oshirish muddatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi asoslab berilgan. Maqolada mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida ichki ko‘rib chiqish chegaralarini qonunchilikda aniq belgilash, rahbariyat nazoratini tashkiliy-uslubiy masalalar bilan cheklash, ekspert mustaqilligini kafolatlash hamda ekspert xulosasini ortiqcha ma’muriy bosqichlarsiz sud-tergov organlariga yuborish bo‘yicha takliflar ilgari surilgan.

Калит сўзлар. davlat sud-ekspertiza muassasalari, jinoyat protsessi, sud ekspertizasi, sud eksperti, ekspert mustaqilligi, ekspert xulosasi, daliliy ahamiyat, ichki nazorat, protsessual mustaqillik, ekspert faoliyati.

Аннотация. В статье анализируются правовой статус государственных судебно-экспертных учреждений в уголовном процессе, процессуальная независимость экспертной деятельности, а также доказательственное значение заключения эксперта. Освещаются права и обязанности судебных экспертов, роль руководства учреждения в процессе подготовки и оформления экспертного заключения, а также влияние практики многоступенчатого внутреннего контроля на независимость эксперта. Обосновывается, что превращение проверки заключений на практике в содержательное вмешательство может негативно сказываться на личной ответственности эксперта и объективности заключения, а также на сроках осуществления процессуальных действий. В целях устранения выявленных проблем в статье предлагается законодательно четко определить пределы внутреннего рассмотрения экспертных заключений, ограничить контроль со стороны руководства организационно-методическими вопросами, обеспечить гарантии

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

независимости эксперта, а также направлять экспертное заключение в судебно-следственные органы без излишних административных этапов.

Ключевые слова. государственные судебно-экспертные учреждения, уголовный процесс, судебная экспертиза, судебный эксперт, независимость эксперта, заключение эксперта, доказательственное значение, внутренний контроль, процессуальная независимость, экспертная деятельность.

Annotation. The article analyzes the legal status of state forensic expert institutions in criminal proceedings, the procedural independence of expert activities, and the evidentiary value of expert opinions. It examines the rights and duties of forensic experts, the role of institutional management in the preparation and formalization of expert opinions, as well as the impact of multi-stage internal review practices on expert independence. The article substantiates that, in practice, the review of expert opinions may turn into substantive interference, which can adversely affect the expert’s personal responsibility and the objectivity of the opinion, as well as the time limits for conducting procedural actions. To address these issues, the article proposes clearly defining the scope of internal review by legislation, limiting managerial oversight to organizational and methodological matters, ensuring guarantees of expert independence, and forwarding expert opinions to judicial and investigative authorities without unnecessary administrative stages.

Keywords. state forensic expert institutions, criminal proceedings, forensic examination, forensic expert, expert independence, expert opinion, evidentiary value, internal review, procedural independence, expert activities.

O‘zbekiston Respublikasida sud-huquq tizimini izchil isloh qilish jarayonida davlat sud ekspertizasi institutining mustaqilligi, obyektivligi va ilmiy asoslanganligini ta’minlash ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Sud ekspertizasi dalillarning eng ishonchli va universal manbalaridan biri sifatida jinoyat protsessida haqiqatni aniqlash, jinoyatning obyektiv tomonini, jinoyatchining shaxsini, shuningdek, jinoyat sodir etilishiga imkon bergan sabab va sharoitlarni aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, davlat sud-ekspertiza muassasalarining jinoyat protsessidagi huquqiy maqomi masalasi ilmiy adabiyotlarda hali yetarlicha tizimli tadqiq etilmagan. Ko‘pincha mazkur institut faqat tashkiliy-texnik nuqtayi nazardan, ya’ni ekspertiza turlari va texnologik imkoniyatlari kesimida yoritilib, uning protsessual-huquqiy tabiati, ya’ni ekspert xulosasining daliliy ahamiyati, muassasaning protsessual mustaqilligi, shuningdek, uning tergov, prokuratura va sud bilan o‘zaro huquqiy munosabatlari yetarlicha tadqiq etilmaydi. Ushbu tadqiqotning dolzarbligi aynan mazkur bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Davlat sud-ekspertiza muassasasini boshqa subyektlardan, ya’ni nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari, boshqa korxona, muassasa

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

yoki tashkilotlardan ajratib turuvchi asosiy huquqiy belgilar quyidagilardan iborat. Birinchidan, tashkiliy-huquqiy shakli: u davlat tomonidan tashkil etiladi va davlat budjeti hisobidan moliyalashtiriladi. Ikkinchidan, protsessual mustaqillik kafolati: sud eksperti ekspertizani tayinlagan organdan, taraflardan va ish natijasidan manfaatdor bo‘lgan boshqa shaxslardan mustaqil bo‘lib, unga faqat ekspertizani tayinlagan organ tomonidan ko‘rsatma berilishi mumkin. Uchinchidan, javobgarlik mexanizmi: bila turib yolg‘on xulosa berganlik uchun jinoiy javobgarlik JPKda nazarda tutilgan alohida ogohlantirish tartibi orqali ta’minlanadi. To‘rtinchidan, xulosaning protsessual maqomi: ekspert xulosasi jinoyat protsessida mustaqil dalil turi sifatida e’tirof etiladi hamda boshqa dalillar kabi tekshiriladi va baholanadi.

JPKning 182-moddasida davlat sud-ekspertiza muassasasida yoki boshqa korxona, muassasa va tashkilotda ekspertiza o‘tkazish tartibi, 183-moddasida esa ekspertiza muassasasidan tashqarida ekspertiza o‘tkazish holatlari tartibga solingan. Mazkur ikki norma o‘rtasidagi farq davlat sud-ekspertiza muassasasining huquqiy maqomini boshqa subyektlardan ajratib turuvchi muhim mezon hisoblanadi. Birinchi holatda ekspertiza o‘tkazish muassasa nomidan uning rahbari orqali ekspertga topshiriladi, ikkinchi holatda esa ekspert ekspertiza muassasasidan tashqarida shaxsan faoliyat yuritadi.

Ekspert yoki ekspertlar komissiyasining xulosasi **JPKning 184-moddasida,** xulosa berishning iloji yo‘qligi to‘g‘risidagi hujjat esa 185-moddada tartibga solingan. Amaliyot tahlili shuni ko‘rsatadiki, xulosa berishning iloji yo‘qligi to‘g‘risidagi hujjatni tuzish asoslari (185-modda) ayrim hollarda tadqiqot obyektlarining yetarli emasligini asossiz ravishda kengroq talqin qilish uchun ishlatilishi mumkin, bu esa ekspertiza sifatini nazorat qilish mexanizmini kuchaytirishni taqozo etadi. Shuningdek, ekspert xulosasi protsessda mustaqil dalil turi sifatida boshqa dalillar bilan bir qatorda tekshiriladi va baholanadi; bunda uning ilmiy asoslanganligi, ekspertning malakasi va mustaqilligi, tadqiqot metodikasining amaldagi standartlarga muvofiqligi baholash mezonlari hisoblanadi. Birlamchi xulosaning to‘liq emasligi yoki asossizligi aniqlangan taqdirda qo‘shimcha yoki qayta ekspertiza tayinlanishi mumkin.

X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazida o‘tkaziladigan ekspertizalar umumiy holda quyidagi guruhlarga tasniflanadi: an’anaviy kriminalistik ekspertizalar (trasologik, daktiloskopik, ballistik, qo‘lyozma, texnik-hujjatshunoslik, filologik, fonografik); moddalar, materiallar va buyumlar ekspertizasi (giyohvand moddalar, metall va qotishmalar, to‘qima materiallari, bo‘yoq-lak materiallari, neft mahsulotlari, portlovchi moddalar va boshqalar); maxsus ekspertizalar (siyosiy-lingvistik, lingvistik, DNK biologik ekspertizasi); muhandislik-texnik ekspertizalar (yong‘in-texnik, qurilish-texnik, kompyuter-texnik); avtotexnika ekspertizalari; biologik, tuproqshunoslik, ekologik va iqtisodiy

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

ekspertizalar. Ushbu tasnif tizimi asosan barqaror bo‘lsa-da, texnologik taraqqiyot yangi turdagi obyektlar va tekshiruv usullarini taqozo etmoqda, bu esa mavjud tasnifni kengaytirish zaruratini keltirib chiqarmoqda [1].

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, Davlat sud ekspertiza muassasasining JPKsida tutgan ahamiyatini tahlil qilar ekanmiz JPKning quyidagi moddalari Davlat sud ekspertiza muassasasining jinoyatni ochishdagi tutgan o‘rnini ko‘rsatadi jumladan bular **JPKning 67,68,69,70,78-**moddalarida [2] ekspert va mutaxassisning protsessual moqomlari haqida shuningdek ularning ishtirokchi sifatida huquq majburiyatlari ham, ekspertiza tayinlash va o‘tkazish tartibi **JPKning 22-bob 172-186-moddalari**da ekspertiza tayinlashdagi eng muhim jihatlar haqida.

JPKning **182-modda** ekspertizaning birlamchi va ustuvor tartibini belgilaydi: tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ, surishtiruvchi, tergovchi yoki sud ekspertiza tayinlash to'g'risidagi qaror yoki ajrimni, tekshirish obyektlarini bevosita davlat sud-ekspertiza muassasasi (yoki boshqa tashkilot) rahbariga yuboradi ya’ni qonun ekspertizani muayyan shaxsga emas, balki institutsional darajada muassasaga topshirish modelini nazarda tutadi. Bu yerda uch jihat muhim:

JPKning **183-modda,** aksincha, istisno tartibini ekspertizani muassasadan tashqarida, alohida shaxsga topshirishni tartibga soladi. Bu yerda qonun shaxsning o'zini (uning malakasi, rad etish asoslari mavjudligi) individual tarzda tekshirishni talab qiladi, ya’ni institutsional emas, balki shaxsiy ishonchni tekshirish mexanizmi ishga tushadi. Shuningdek, bu moddada ekspertga nisbatan shaxsan ogohlantirish (238-modda bo'yicha jinoiy javobgarlik) alohida ta’kidlanadi 182-moddada bu ogohlantirish muassasa doirasida (institutsional javobgarlik konteksti bilan birga) yuz bersa, 183-moddada u to'g'ridan-to'g'ri, vositachisiz amalga oshiriladi.

Shu o‘rinda ekspertning xulosa berishdagi majburiyatlari haqida ham to‘xtalib ketsak X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazida sud ekspertizasi tadqiqotlarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risida **72-son** nizomning **41-band** [3] uchinchi paragrifi: sud ekspertining huquqlari va majburiyatlarini unga tushuntirish va uning bilib turib noto‘g‘ri xulosa berganligi, ish materiallarini oshkor qilganligi, shuningdek uzrli sabablarsiz xulosa berishni rad etganligi yoki bundan bosh tortganligi uchun jinoiy javobgarlikka tortilishi to‘g‘risida tushuntirilganligi haqidagi tilxat olinganida ushbu tilxatga muvofiq ekspert quyidagi majburiyatlarni o‘z bo‘yniga oladi jumladan O‘zbekiston Respublikasi JPKning 68-moddasiga binoan huquq va majburiyatlar tushuntiriladi [4]. Bila turib yolg‘on xulosa berganlik, tergov ma'lumotlarni oshkora qilish, xulosa berishdan bosh tortish yoki bo‘yin tovlash uchun O‘zbekiston Respublikasi JKning 238-240-moddalari bo‘yicha jinoiy javobgarlik haqida ogohlantiriladi [5]. Shuningdek Davlat sud eksperti bir qator qonun hujjatlari va qonun osti hujjatlarda uning majburiyatlari va javobgarligi keltirib o‘tilgan, amaliyotda ekspertlar ushbu

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

javobgarliklarini juda yaxshi bilishadi va unga so‘zsiz amal qilishadi. Fikrimizcha, quyidagi o‘rinli savol paydo bo‘ladi unda ko‘p bosqichli tekshiruv nega kerak degan savolga javob izlab ko‘ramiz, demak qonunchilikka ko‘ra davlat sud ekspertiza muassasi Rahbari quyidagi majburiyatlarni o‘z bo‘yniga oladi jumladan bular: Nizomning tegishli **13-14** qismlarida Markaz rahbarining vazifa va cheklovlari ikki guruhga ajratilgan holda belgilangan. Majburiy vazifalari jihatidan rahbar, mohiyatan, tashkiliy-ta’minlovchi funksiyani bajaradi: tushgan materiallarni qabul qilish va ularning nizom talablariga mosligini tekshirish, ijroni tegishli mutaxassislarga yozma topshiriq orqali taqsimlash, muddatlarga rioya etilishini nazorat qilish, ekspertning huquq-majburiyatlari va javobgarligi (jumladan, bilib turib yolg‘on xulosa berish uchun jinoiy javobgarlik) to‘g‘risida ogohlantirilishini ta’minlash, tadqiqot obyektlarining saqlanishi va yakuniy xulosaning tayinlovchi organga yetkazilishini kuzatish, shuningdek moliyaviy-xo‘jalik (xarajatlarni undirish) masalalarini hal etish kiradi. Cheklovlar jihatidan esa nizom rahbarning vakolatini aniq doirada ushlab turadi: u tayinlovchi organning roziligisiz qo‘shimcha tadqiqot obyektlarini mustaqil talab qila olmaydi, tashqi mutaxassislarni o‘z ixtiyoricha jalb eta olmaydi va eng muhimi ekspertga tadqiqot jarayoni yoki xulosaning mazmunini oldindan belgilab beruvchi ko‘rsatma berish huquqiga ega emas. Shu tariqa, nizom darajasida ham rahbarning vazifasi faqat tashkiliy-ta’minlovchi xarakterga ega bo‘lib, mazmuniy-ilmiy jarayonga aralashish aniq taqiqlangan. Bu maqoladagi asosiy tezisni (ko‘p bosqichli nazoratning normativ jihatdan faqat rasmiy-tashkiliy doirada qolishi lozimligi) quyi (idoraviy) darajadagi hujjat orqali ham tasdiqlovchi qo‘shimcha dalil sifatida xizmat qilishi mumkin.

Fikrimizni davom etirib, Amaliyotda ekspert yoki mutaxassis tomonidan tayyorlangan xulosa (mutaxassis fikri) yakuniy shaklda rasmiylashtirilgunga qadar muassasa rahbariyati va tegishli mas’ul shaxslar tomonidan bir nechta bosqichli ichki tekshirish va qayta ko‘rib chiqish jarayonidan o‘tkaziladi. Ushbu jarayon ko‘pincha hujjatning uslubiy-texnik jihatlarini tartibga solish bilan cheklanmasdan, uning mazmunan o‘zgartirilishiga, ayrim hollarda esa ekspert (mutaxassis)ning ilmiy-texnik xulosasiga daxldor bo‘lmagan subyektiv tuzatishlar kiritilishiga olib keladi.

Bunday holat bir qator salbiy oqibatlarga sabab bo‘ladi: **birinchidan,** ekspert xulosasining mustaqillik prinsipi amalda buziladi; **ikkinchidan,** ko‘p bosqichli tekshiruv xulosa va mutaxassis fikr jarayoni xulosani tayyorlash muddatining uzayishiga va protsessual harakatlarning kechiktirilishiga olib keladi; **uchinchidan,** rahbariyat tomonidan kiritilgan tuzatishlar keyinchalik xulosaning sud tomonidan baholanishida ekspert bilan rahbariyat o‘rtasidagi mas’uliyatni chegaralashda noaniqlik tug‘diradi.

Shuningdek, amaliyotga nazar tashlasak, ekspert xulosani tayyorlab, imzolaganidan so‘ng u keyingi bosqichda bo‘lim boshlig‘i tomonidan nazoratdan o‘tkaziladi. Bu, albatta, ijobiy amaliyot

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

hisoblanadi, chunki bo‘lim va laboratoriya mudirlari aynan tegishli soha bo‘yicha yetuk mutaxassislar hisoblanadi. Ular ekspert tomonidan yo‘l qo‘yilgan kamchilik va xatolarni, tadqiqot metodikasining to‘g‘riligi hamda xulosaning belgilangan tuzilmaviy talablarga muvofiqligini tekshiradi.

Keyingi bosqichda xulosa sifat menejmenti xizmati darajasida ko‘rib chiqiladi. Bunda asosiy mezon sifatida uning tegishli metodik qo‘llanmalarga muvofiqligi olinadi. Biroq amaliyotda bunday nazoratning doirasi xulosaviy qismni tahrirlashgacha kengayishi mumkin. Shundan so‘ng xulosa rahbar o‘rinbosarlari tomonidan ko‘rib chiqiladi. Eng muammoli bosqich esa muassasa rahbariyati darajasidagi nazoratdir. Chunki aynan shu bosqichda rahbarning ma’muriy-xo‘jalik manfaatlari, jumladan, shikoyatlar soni va statistik ko‘rsatkichlar kabi omillarning ilmiy-texnik baholash jarayoniga aralashishi ehtimoli yuqori bo‘lishi mumkin. Yakunda xulosa markaz rahbari tomonidan ko‘rib chiqilib, imzolangandan keyingina uni ekspertizani tayinlagan organ yoki jismoniy va yuridik shaxslarga yuborish mumkin bo‘ladi. Ko‘rinib turibdiki, bunday tartib ancha uzoq va ko‘p bosqichli jarayonni tashkil etadi.

Nazariy jihatdan “uslubiy nazorat” bilan “mazmuniy aralashuv” o‘rtasidagi chegarani uchta mezon asosida ajratish mumkin. Birinchidan, tadqiqot metodikasining tanlanishi. Agar rahbariyat ekspert tanlagan metodikani almashtirishni talab qilsa, bu ekspert faoliyatining mazmuniga aralashuv hisoblanadi. Ikkinchidan, olingan natijalarning talqini. Xulosaviy qismdagi xulosalarning mazmunan o‘zgartirilishi mazmuniy aralashuv sifatida baholanishi lozim. Uchinchidan, xulosa tilining tahrir qilinishi. Agar tahrir faqat uslubiy, grammatik yoki tuzilmaviy xususiyatga ega bo‘lmay, balki xulosaning kategorik darajasini, masalan, “aniq” xulosani “ehtimoliy” xulosaga o‘zgartirishni nazarda tutsa, bunday tahrir ham mazmuniy aralashuv hisoblanadi.

Amaliyotda aynan uchinchi holat eng ko‘p uchraydigan, biroq eng kam hujjatlashtiriladigan holatlardan biridir. Chunki bunday tahrirlar ko‘pincha og‘zaki ko‘rsatma shaklida beriladi va tegishli hujjatlarda aks ettirilmaydi. Mazkur holatning protsessual oqibatlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, ko‘p bosqichli tekshiruvlar natijasida ekspertizani tayinlagan organ, shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslar ekspert xulosasi yoki mutaxassis fikrini olish uchun ortiqcha kutishga majbur bo‘lishi mumkin. Xulosalarning sun’iy ravishda qaytarilishi esa jinoyat protsessi ishtirokchilarini asossiz kutishlarga olib keladi. Ta’kidlash joizki, jinoyat ishlarini yuritishda bir kunning o‘zi ham muhim protsessual ahamiyatga ega.

Mazkur masalaning himoya huquqiga oid jihati ham alohida e’tiborga loyiq. Ekspert sud majlisida o‘zi bevosita yozmagan, biroq rahbariyat tomonidan xulosaga kiritilgan jumlalarni izohlash va asoslashga majbur bo‘lishi mumkin. Bu esa JPKning 184-moddasida nazarda tutilgan “ekspert xulosasi” tushunchasining mohiyatiga, ya’ni xulosa ekspert tomonidan bevosita va shaxsan o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga asoslanishi

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

lozimligi haqidagi yondashuvga zid keladi.

Shuningdek, JPKning tegishli normalarida sud ekspertining mustaqilligi kafolatlangan. Sud ekspertizasi tadqiqotlarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizomning 9-bandi so‘nggi qismida ham bu tamoyil quyidagicha ifodalangan: “Sud eksperti o‘z faoliyatini amalga oshirishda mustaqildir va uning faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga yo‘l qo‘yilmaydi” [6].

Fikrimizcha, ko‘rsatilgan muammoning ildizi amaldagi normativ-huquqiy bazada xulosani ichki ko‘rib chiqish (retsenziyalash) tartibining aniq protsessual chegaralari belgilanmaganidadir. Rahbariyatning nazorat vakolati bilan ekspert xulosasining mustaqilligi o‘rtasidagi chegara qonunchilikda mujmal shaklda aks ettirilgan, bu esa amaliyotda nazoratning mazmunga aralashuv shakliga aylanishiga sharoit yaratadi.

Ba’zi mualliflar ushbu muammoni quyidagicha hal etishni taklif qiladi. Yuridik fanlar nomzodi I. Istamov [7] o‘z doktorlik ilmiy ishida ekspertiza muassasasi rahbari ekspertiza o‘tkazishda ishtirok etuvchi subyektlardan biri ekanini ta’kidlaydi. Uning fikricha, JPKda ekspertiza muassasasi rahbarining huquqiy maqomi belgilanmagan bo‘lib, bu holat uning jinoyat protsessi ishtirokchisi sifatidagi maqomiga oid masalani ochiq qoldiradi. Zero, komissiyaviy va kompleks ekspertizalarni o‘tkazishda ekspertiza muassasasi rahbarining o‘rni muhim bo‘lib, u ekspertizaga yuborilgan ishni ekspertlar o‘rtasida taqsimlaydi, tadqiqot usulini belgilashda ishtirok etadi hamda umumiy xulosani shakllantirish jarayonini tashkil etadi.

Shu munosabat bilan qonunchilikda ekspertiza muassasasi rahbarining huquq va majburiyatlariga oid qoidalarni mustahkamlash maqsadga muvofiq. Ta’kidlash joizki, ekspertiza muassasasi rahbari ekspertlarning faoliyati, malakasi va tajribasidan xabardor bo‘lganligi sababli, qaror (ajrim) kelib tushganda, ekspertiza o‘tkazishni muayyan ekspert yoki ekspertlar guruhiga topshirish masalasini hal qilishi maqsadga muvofiq [8].

Guvohi bo‘lganimizdek, ekspertiza muassasasi rahbari jinoyat protsessi ishtirokchilari tizimida o‘ziga xos o‘ringa ega. Bizningcha, kodeksda mazkur shaxsni huquq va majburiyatlarini alohida moddada bayon etish zarur. Bunda ekspertiza o‘tkazilish jarayonida rahbar ikki turdagi huquqlarga ega. Birinchidan, protsessual huquqlari, ular sirasiga quyidagilar kiradi: ekspertiza o‘tkazishni bir yoki bir necha ekspertga topshirish; ekspertga uning huquq va majburiyatlarini tushuntirish; ekspertni bila turib yolg‘on xulosa berganlik uchun javobgarlikka tortilishi haqida ogohlantirish. Ikkinchidan, ma’muriy (xizmat yuzasidan) vakolatlari, ular jumlasiga ishni qabul qilish va yozma shaklda ma’lumot berish kabilar kiradi. Chunki berilgan qaror tegishliligi bo‘yicha noto‘g‘ri yuborilganligi yoki mazkur muassasa tadqiqot faoliyati doirasiga kirmasligi yoxud tegishli tadqiqotni o‘tkaza oladigan ekspertning yo‘qligi sababli ham tadqiq qilinmasligi mumkin. Bu haqida ekspertiza muassasasi rahbari tergovchiga yozma shaklda ma’lumot beradi. Ekspertiza

muassasasi rahbari javobgarligi haqida ham qonunchilikda hech narsa belgilanmagan. Holbuki, unga nisbatan ham ma’lum bir javobgarlikni belgilash zarur. Chunki tergovchi qarorni muassasa rahbariga yuborgach, ushbu tadqiqot taqdiri ekspert bilan birga ishni taqsimlovchi, sharoit yaratib beruvchi rahbar zimmasiga ham tushadi. Tadqiqot natijasi bo‘lmish xulosa uchun shu tadqiqotni o‘tkazgan ekspert javobgar bo‘lsa, tadqiqot obyektini butunligicha yetkazish va tadqiqot borishini nazoratga olish rahbar bo‘ynida bo‘ladi. Tegishli sharoit yaratib berilmaganligi va ekspert ishiga aralashganlik uchun rahbar javobgar bo‘lishi lozim. Demak, qaror va namunalar ekspertiza muassasiga yetkazilgandan boshlab rahbar ushbu tadqiqot ishi yuritilishini ta’minlash va ekspertga yetkazish bo‘yicha mas’ul hisoblanadi.

Shu o‘rinda rahbarning ekspertiza o‘tkazish sifati ustidan nazorat qilishi huquqi to‘g‘risida to‘xtalib o‘tsak. R.S. Belkin ta’kidlaganidek [9], “ilmiy doirada ekspertiza muassasasi rahbarining ekspertiza o‘tkazilishi sifati ustidan nazorat qilish huquqi ko‘plab munozaralarga sabab bo‘lmoqda. Bu huquq ko‘p ijobiy qirralarga ega bo‘lsa-da, ekspert mustaqilligiga rahna solishi mumkin” Bizning fikrimizcha, ekspertning mustaqilligini cheklash noto‘g‘ri bo‘lardi, chunki u bajargan harakatlari uchun o‘zi javob beradi. Shu holatda rahbarning vazifasi tadqiqotning to‘liq olib borilmayotganligi, olingan natijalar haqida izoh berishi, qo‘shimcha ekspertiza o‘tkazishni talab qilishi, ba’zi bir holatlarini alohida urg‘u berib yoritib ketishi kerakligiga o‘z diqqatini qaratishi to‘g‘risida ko‘rsatma berishi mumkin [10].

Rahbar ekspertga u tanlagan tadqiqot usulining noto‘g‘ri ekanligini asoslab, tadqiqotni to‘g‘ri yo‘nalishda olib borishni taklif qilishi mumkin. Zotan, rahbar ekspertga muayyan xulosa berishni uqtirish, talab qilish yoki ekspert xulosasini o‘zgartirishga haqli emas. Ayni paytda ekspert tomonidan tanlangan tadqiqot usulining noto‘g‘ri ekanligini bila turib, xatoga yo‘l qo‘yilishiga imkon berish ham to‘g‘ri emas.

Bizning fikrimizcha, bunday holatda rahbar bir nechta ekspert ishtirokida xulosani muhokama qilib, zarur tushuntirishlarni berganidan so‘ng ham ekspert o‘z fikrida qolsa, ekspert xulosasi tergovchiga yuborilishi bilan birga, rahbarning xulosadan yoki uning muayyan qismidan norozi ekanligini aks ettiruvchi dalolatnomani ham ilova qilish tartibini joriy etish lozim. Bunday dalolatnoma protsessual akt hisoblanmasligi va mustaqil huquqiy oqibatlarni keltirib chiqarmasligi kerak. Tergovchi esa ushbu ikki hujjatni o‘rganib, rahbarning e’tirozlarini inobatga olmasligi yoki qo‘shimcha yoxud qayta ekspertiza tayinlashi mumkin.

Mazkur holatda rahbar tergovchi tomonidan ekspertiza tayinlangach, komissiyaviy ekspertiza o‘tkazilishini tashkil etadi. Komissiyaviy tartibda ekspertiza o‘tkazilganda esa ekspertlarning har bir xulosasi muhokama qilinadi va baholanadi.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash o‘rinliki, davlat sud-ekspertiza muassasalari amaliyotida ekspert xulosasi tayyorlangach, u bo‘lim

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

boshlig‘i va muassasa rahbariyatining ketma-ket tekshiruvidan o‘tib, shundan so‘ng sud-tergov organlariga yuboriladi. Mazkur ko‘p bosqichli “filtrlash” tartibi bir qator salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Birinchidan, u ekspert mustaqilligi va xulosaning xolisligiga ta’sir ko‘rsatadi, zero xulosa boshqa shaxslar tomonidan qayta ko‘rib chiqilib, ularning yondashuviga moslashtirilishi ehtimoli mavjud. Ikkinchidan, ekspert xulosasining tayyorlanishi va yuborilishi muddatlarini asossiz ravishda cho‘zadi. Uchinchidan, har bir yo‘nalish bo‘yicha ekspert faqat o‘zining maxsus bilimlari doirasidagi savollarga javob bergan holda, uning xulosasini boshqa maxsus bilimlarga ega bo‘lmagan rahbarlar tomonidan mazmunan tekshirilishi metodik jihatdan ham asoslanmagan.

Sud ekspertlik faoliyatining asosiy tamoyillaridan biri ekspertning protsessual mustaqilligi va o‘z xulosasi uchun shaxsiy javobgarligidir. Ekspert o‘zi o‘tkazgan tadqiqot va bergan xulosasi uchun, jumladan, bila turib yolg‘on xulosa berganlik uchun qonunchilikda belgilangan tartibda jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin. Shu bois uning xulosasini rahbariyat tomonidan mazmunan qayta tekshirish va tasdiqlash shart emas. Aksincha, bunday tartib ekspertning shaxsiy javobgarligi bilan rahbariyatning vakolatlari o‘rtasidagi chegaralarni noaniqlashtirishi mumkin.

Shu bois davlat sud-ekspertiza muassasalarida ekspert xulosasini rahbariyat tomonidan mazmunan tekshirmasdan, bevosita sud-tergov organlariga yuborish tartibini joriy etish taklif etiladi. Bunda ekspert xulosani mustaqil ravishda shakllantirib, unga shaxsan imzo qo‘yadi va uning mazmuni uchun to‘liq javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi. Muassasa rahbarining roli esa xulosa mazmunini baholash va unga o‘zgartirish kiritish emas, balki ekspertiza jarayonining tashkiliy ta’minoti hamda belgilangan muddatlarga rioya etilishini nazorat qilish bilan cheklanadi. Mazkur tartib ekspert mustaqilligini mustahkamlash, xulosaning xolisligini ta’minlash, ortiqcha byurokratik bosqichlarni bartaraf etish va ekspertiza o‘tkazish muddatlarini qisqartirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining “Sud ekspertlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni loyihasida sud ekspertining daxlsizligi prinsipini alohida norma sifatida mustahkamlash maqsadga muvofiq. Shu munosabat bilan qonunning 71-moddasini “Sud ekspertining daxlsizligi” deb nomlangan alohida modda bilan to‘ldirish taklif etiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, davlat sud-ekspertiza muassasalarining jinoyatlarni ochish va tergov qilishdagi rolini kuchaytirish, shuningdek, ekspert xulosasining ilmiy xolisligini ta’minlash maqsadida quyidagi kompleks choralarni amalga oshirish taklif etiladi: birinchidan, ichki ko‘rib chiqishni faqat xulosaning rasmiy va uslubiy talablarga muvofiqligini tekshirish bilan cheklovchi normani JPKda mustahkamlash; ikkinchidan, rahbariyat tomonidan bildirilgan e’tirozlarni yozma dalolatnoma tarzida rasmiylashtirish va bunday hujjatning protsessual oqibatlarini qonunchilikda belgilash; uchinchidan, ko‘p bosqichli

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

qog‘oz hujjat aylanishini qisqartirish va E-ekspertiza raqamli elektron axborot tizimini mazkur jarayonga muvofiqlashtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги Х. Сулаймонова номидаги Республика суд экспертизаси марказининг суд-экспертлик илмий-тадқиқот институти, Ўзбекистон Республикаси Ҳуқуқни муҳофаза қилиш академияси “Замонавий суд экспертизасининг имкониятларидан тўлиқ фойдаланиш бўйича” қўлланма. 2023 й.

2. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. https://lex.uz/docs/-111460

3. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazida sud ekspertizasi tadqiqotlarini o‘tkazish tartibi to'g'risida Nizom (O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2023-yil 10-apreldagi 72-um-son buyrug'iga ilova).

4. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. https://lex.uz/docs/-111460

5. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. https://lex.uz/docs/-111453

6. Суд экспертизаси тадқиқотларини ўтказиш тартиби тўғрисида Намунавий низом. Вазирлар Маҳкамасининг 2023 йил 21 февралдаги 73-сон қарорига 1-илова.

7. Астанов Истам Рустамович Жиноят Ишлари Бўйича Махсус Билимлардан Фойдаланишнинг Процессуал Ва Криминалистик Жиҳатлари Юридик фанлар доктори (Doctor of Science) илмий даражасини олиш учун тайёрланган Диссертация

8. Россинская Е.Р., Галяшина Е.И., Зинин А.М. Теория судебной экспертизы (Судебная экспертология): учебник/под ред. Е.Р. Россинской. – 2-е изд. – М.: Норма: ИНФРА-М, 2023. – 368 с. – ISBN 978-5-91768-716-2.

9. Белкин Р.С. Курс криминалистики. – М.: Норма, 1997. Т.3. – С. 108.

10. Аверьянова Т.В., Белкин Р.С., Корухов Ю.Г., Россинская Е.Р. Судебная экспертиза: Курс общей теории. – М.: Норма, 2006.